

ASSESSING ROLE OF SMALL BUSINESSES IN INCREASING PER CAPITA REAL INCOME IN KHORESM REGION

Ataev Jaxongir Erkinovich

Researcher of Urgench State University
named after Abu Rayhon Beruni

Annotation: In this paper developed models for assessing role of small business entities in increasing real incomes of population in Khorezm region. Based on the results of the model, determined an elasticity coefficient, which reflects impact of changes in small business entities on real incomes of population.

Keywords: Real per capita income, small business, econometric model, determination coefficient, elasticity coefficient.

XORAZM VILOYATIDA AHOLI JON BOSHIGA REAL DAROMADLARI OSHIRISHDA KICHIK BINES SUBYEKTLARI ROLINI BAHOLASH ОЦЕНКА РОЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В УВЕЛИЧЕНИИ РЕАЛЬНОГО ДОХОДА НА ДУШУ НАСЕЛЕНИЯ В ХОРЕМСКОМ РЕГИОНЕ

Atayev Jaxongir Erkinovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
davlat universiteti tadqiqotchisi

Атаев Жахонгир Эркинович

Научный сотрудник Ургенчского
государственного университета имени Абу

Райхана Беруни.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatida aholi jon real daromadlarni oshirishda kichik biznes sub'ektlarining rolini baholash modellari ishlab chiqilgan. Model natijalariga asosida kichik biznes sub'ektlaridagi o'zgarishlarning aholi real daromadlariga ta'sirini ifodalovchi elastiklik koeffitsienti aniqlanilgan.

Kalit soʻzlar: Jon boshiga real daromad, kichik biznes, ekonometrik model, determinatsiya koeffitsienti, elastiklik koeffitsienti.

Аннотация: В данной работе разработаны модели оценки роли субъектов малого предпринимательства в повышении реальных доходов населения Хорезмской области. По результатам модели определен коэффициент эластичности, который отражает влияние изменений в субъектах малого предпринимательства на реальные доходы населения.

Ключевые слова: Реальный доход на душу населения, малый бизнес, эконометрическая модель, коэффициент детерминации, коэффициент эластичности.

Kichik biznesni rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda markaziy rol oʻynaydi [1]. Jumladan, kichik biznesni haqli ravishda yangi ish oʻrinlari yaratish va byudjet daromadlariga hamda yalpi milliy mahsulot oʻsishiga katta hissa qoʻshish orqali mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligining asosi deb atash mumkin [2].

Yuqorida keltirilganlarni hisobga olgan holda Xorazm viloyatida jon boshiga real daromadlariga faol kichik biznes subʼektlari taʼsirini miqdoriy baholash maqsadida qator modellar qarab chiqildi, ularning natijalarini va ishonchliligini asoslash boʻyicha mezonlar keltirib oʻtildi. Turli modellarning qiyosiy tahliliga asoslanib quyidagi modeldan foydalanish taklif qilindi.

$$\ln(JRD)_t = 0,66 * \ln(JRD)_{t-1} + 0,65 * \varepsilon_{t-1} + 0,87 * \ln(F)_t$$

Bu yerda: JRD – Xorazm viloyatida aholi jon boshiga real daromadlar hajmi, ming soʻmda.; F – Xorazm viloyatida faol kichik biznes subyektlari soni, birlik.

Aniqlanilgan har bir koeffitsient adekvatligi Student mezoni natijalariga koʻra asoslanilgan, boʻlib ularning qiymati -1,96 va 1,96 intervalidan tashqarida. Shunga mos ravishda ehtimollik koʻrsatkichlari ham ishonchlilik darajasini 98 foizdan yuqoriligini

ko'rsatmoqda. Determinatsiya koeffitsienti bo'yicha aniqlanilgan qiymat 0,93 ga teng bo'lib, model shakli va omillarshni to'g'ri tanlanganligini asoslamoqda (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyatida faol kichik bizens subyektlari sonini aholi jon boshiga real umumiy daromadlarga ta'sirini baholash natijalari

Model 19: ARMAX, using observations 2010-2024 (T = 15)

Dependent variable: l_JRD

Standard errors based on Hessian

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>z</i>	<i>p-value</i>	
phi_1	0.656628	0.231767	2.833	0.0046	***
theta_1	0.652248	0.280000	2.329	0.0198	**
l_F	0.870597	0.0110231	78.98	<0.0001	***
Mean dependent var	8.294070		S.D. dependent var	0.357697	
Mean of innovations	0.015700		S.D. of innovations	0.092541	
R-squared	0.932429		Adjusted R-squared	0.921167	
Log-likelihood	13.50194		Akaike criterion	-19.00387	
Schwarz criterion	-16.17167		Hannan-Quinn	-19.03404	
		<i>Real</i>	<i>Imaginary</i>	<i>Modulus</i>	<i>Frequency</i>
AR					
	Root 1	1.5229	0.0000	1.5229	0.0000
MA					
	Root 1	-1.5332	0.0000	1.5332	0.5000

Modelga ko'ra mamlakatda faol bo'lgan kichik biznes subyektlari sonini bir foizga oshishi aholi jon boshiga real daromadlar hajmini 0,87 foizga oshishini ta'minlaydi. Mazkur koeffitsient nisbatan katta bo'lishi mumkin edi, chunki oldingi

tadqiqotlarimizdan ma'lumki keyingi yillarda faol kichik biznes subyektlari sonidagi pasayish kuzatilgan.

Yangidan tashkil etilgan kichik biznes subyektlari ta'sirini baholashda ham yuqorida keltirilgani kabi muammoga duch kelinganligi sababli model qo'shimcha omil sifatida tasodifiy o'zgaruvchining kechikishi olingan. Bu bilan mavjud muammo bartaraf etildi va model natijalari quydagi ko'rinishga ega bo'ldi.

$$\ln(PRI)_t = 5,33 + \varepsilon_{t-1} + 0,38 * \ln(Y)_t$$

Bu yerda: Y – Xorazm viloyatida yangidan tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni, birlik.

Mazkur modelning ishonchliligi hamda aniqlanilgan koeffitsientlar adekvatligini asoslash uchun zarur bo'lgan mezonlar natijalari taqdim qilingan bo'lib, ularning barchasi kritik chegaralardan tashqarida bo'lganligi sababli ularning sharhlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmadi. Qisqacha qilib aytganda natijalarning barchasi ushbu model asosida ilmiy asosga ega bo'lgan xulosa va takliflarni ishlab chiqish mumkinligini tasdiqlaydi.

Model natijalarini ko'rsatishicha mamlakatda yangidan tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonidagi o'zgarish aholi jon boshiga real umumiy daromadlarga ijobiy ta'sirga ega (2-jadval).

2-jadval

Xorazm viloyatida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonini aholi jon boshiga real umumiy daromadlarga ta'sirini baholash natijalari

Model 24: ARMAX, using observations 2010-2024 (T = 15)

Dependent variable: l_JRD

Standard errors based on Hessian

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>z</i>	<i>p-value</i>	
const	5.33003	0.785995	6.781	<0.0001	***

theta_1	1.00000	0.307350	3.254	0.0011	***
I_Y	0.380575	0.101011	3.768	0.0002	***
Mean dependent var	8.294070		S.D. dependent var	0.357697	
Mean of innovations	0.014941		S.D. of innovations	0.143652	
R-squared	0.830955		Adjusted R-squared	0.817952	
Log-likelihood	6.435067		Akaike criterion	-4.870134	
Schwarz criterion	-2.037933		Hannan-Quinn	-4.900303	
		<i>Real</i>	<i>Imaginary</i>	<i>Modulus</i>	<i>Frequency</i>
MA					
	Root 1	-1.0000	0.0000	1.0000	0.5000

Aniqlanilgan koeffitsientni ko'rsatishicha yangidan tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonidagi bir foiz o'sish aholi jon boshiga real umumiy daromadlardagi 0,38 foizga oshishga sabab bo'ladi. Keltirib o'tilgan natijalarga asoslangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, kichik biznes subyektlarini rivojlantirish aholi daromadlarini, xususan turmush faravonligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda kichik biznesni rivojlantirish aholi jon boshiga real daromadlarni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Xususan bunda ularning faollik darajasi va yashovchanlik koeffitsientini oshirish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Edmiston, Kelly. (2007). The Role of Small and Large Businesses in Economic Development. Economic Review. 92. 73-97. 10.2139/ssrn.993821
2. Verovska, Ludmila & Indrika, Renate. (2019). The Role of Small Business in the Economy and Methods of Its Government Support Using the Example of the Republic of Latvia. Economics and Culture. 16. 72-81. 10.2478/jec-2019-0023.
3. www.stat.uz